

ISLOM DINIDA OTA-ONANING HURMATI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand filiali

Telekamunikatsiya Texnologiyalari fakulteti

23-05 guruh talabasi O.Haydarov

Annotatsiya: Islom dinida ota-onaning o'ri, hurmati eng beqiyos hisoblanadi. Farzand uchun eng oliy o'rinda ota-ona turadi. Ularning xizmatini qilish, ularga yaxshilik qilish, shirin so'zini ulardan ayamaslik, yaxshi narsalarni birinchi ularga berishlik farzand bo'ynidagi qarz hisoblanadi.

Kalit so'zlar: extirom, oila posboni, islom dini, vojib amal.

Kirish. Ota-ona bebaho nemat.

Xar bir inson mavqesi martabasi, obru etibori, millati, irqi, nasl nasabi va dinidan qat'iy nazar ota - onasiga izzat extirom ko'rsatishi ularning xolidan xabar olishi ularga yaxshi muomalada bo'lishi farzandlik burchidir. Chunki OILA ravnaqi uchun jon kuydirgan inson asosan otadir. Manaviy ozuqa beruvchi inson esa onadir. Oila posboni ota bo'lsa, mu'allimi ona.

Islom dini ota – onaga yaxshilik qilishni Alloh taologa ibodat qilishdan keyingi o'ringa ko'ygan xamda butun musulmon ummatiga ota onaga yaxshilik qilishga ularga xargiz “uf” demaslikka ota ona oldida ovozi ko'tarmaslikka va ma'siyatdan boshqa xar qaysi o'rinda ularga itoat etishga buyurgan. Alloh taolo qur'oni karimda shunday marxamat etadi. “Robbingiz sizlarga yolg'iz uning o'ziga ibodat qilmoqligingizni xamda ota – onangizga yaxshilik qilishingizni amr etdi”. (isro32)

Paygambarimiz s.a.v. xadisi shariflarida “ota onangizga yaxshi muomalada bo'ling shunda farzanlaringiz sizlarga yaxshi muomalada bo'ladi” deganlar. Oila rivoji sha'ni farzandlar kelajagi va moddiy taminoti yulida otalar o'z yoshligini kuch-quvvatini umrini molini kerak bo'lsa jonini sarf etadi. Qalblari beo'lchov yaratilgan oyog'i ostida jannat bo'lgan mo'tabar onalar ularda mehr ham, shavqat ham, sabr ham, bardosh ham cheksiz. Farzandlari uchun bir tunni yigirmaga bo'lsalarda malollanmaydilar. Ota-ona farzandlari qilgan aybi uchun doimo o'zlarini qalqon qiladilar. Hamisha hamma vaqt biz farzandlarini kelishini mushtoqlik bilan kutadi va bizlardan biror narsa ta'ma qilmaydilar. Lekin bizlar ba'zan ota- onamizga ovozimizni ko'tarib ba'zida esa bolam tez-tez kelib turgin deganlarida ishimiz ko'pligini baxona qilib ularni ranjitib qo'ymayabmizmi. Ming afsuslar bo'lsinkim bugun oralarimizda ota-onasining duolarini olish o'rniga ularni o'z diydoriga zor qilayotgan yoxud qarovsiz tashlab qo'ygan yoki qariyalar uyiga oborib tashlayotgan farzandlar ham yo'q emas. Ota jannat eshigi bo'lsa, ostonasi Ona ularni rozi qilgan ko'nglini olgan kishilar ikki dunyoda ham

baxtu-saodatga erishadi. Allox taolo barchalarimizga ota – onalarimiz roziligini olib ikki dunyo saodatiga erishmoqligimizni nasib etsin.

Ota-onaning asosiy vazifasi.

Diyorimizda oila ma'naviyati va madaniyati asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta'lim tarbiya yotadi.

Shuning bilan birgalikda farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu – ota-ona tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e'tiboridir. Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, degan maqol bejiz aytilmagan.

Serfarzandlik va bolajonlik; kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat; erkaklarning oiladagi yuqori mavqei, ayollarning royishligi; oila va nikohning muqaddasligiga e'tiqod; ota-onalarning farzandlar oldidagi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burch va mas'uliyatining muhim qadriyat sifatida e'tirof etilishi; oila sha'ni va obro'sining avaylab asralishi; kelin va qaynona munosabatlarining o'ziga xosligi; katta oilalarda bobo va buvilarning rahnamoligi; qarindoshlar, qo'ni – qo'shnilar, mahalla – ko'y oldidagi majburiyatini teran his qilish kabi o'zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar zamirida dinimiz ta'limotlari yotadi.

Dunyoda ota-ona eng ulug' zotlar hisoblanadi. Chunki ular o'z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag'ishlaydi. Farzandi katta bo'lib, oila qurib ketgandan keyin ham u haqda qayg'urishdan to'xtamaydi.

Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo'lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta'minlashga harakat qiladi. Hatto buning uchun o'zlari yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo'lsalar yoki kechalari uyqudan qolsalar ham.

Bugun yoshlarimiz baxtli, chunki ularning ota-onalari boshida, ular uchun kerakli narsalarni ortig'i bilan olib bermoqda. To'g'ri, bu ishlar ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Afsuski, ba'zi ota-onalar o'zlarining vazifalari faqat shu deb o'ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma'naviy-axloqiy tarbiyasidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: “Ota-ona farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi”. Demak, ota-ona farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg'a emas, balki go'zal xulq va yaxshi tarbiyasi ekan. Chunki kiyim, taom yoki sovg'a bolaga ma'lum vaqt foyda beradi, vaqt o'tishi bilan esa eskiradi. Go'zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi. Nafaqat umri davomida, balki vafotidan keyin oxiratda ham naf keltiradi. Zero, hadisi sharifda:

“Banda go'zal xulqi ila kechalari ibodatda qoim bo'luvchi hamda kunduzi ro'za tutuvchining darajasi – savobiga erishadi”, deyilgan.

Ota-onaga itoat odobi.

Eng avvalo, onaga juda e'tiborli bo'lish kerak. Uni ranjitadigan so'z va harakatlardan tiyilmoq lozim.

Alloh Muso alayhissalomga shunday dedi: «Ey, Muso! Bir kishi ota-onasiga qarshi chiqib, tili bilan ularni va yoki ulardan birini xafa qilsa, o'sha kishining tilini kes (tiy, to'xtat)! Har qanday bir a'zosi bilan ularga yoki ulardan biriga ozor bergan farzandning o'sha a'zosini kes» Kimki ota-onasini rozi qilib, ularning xayrli duolarini olsa, o'sha kishi uchun jannatdan ikki eshik ochiladi. Ota-onasi rozi bo'lmagan kishi uchun esa jahannamdan ikki eshik ochiladi. Ota-ona farzandga nisbatan zulm qilsalar ham ularga qarshi turilmaydi, qarshi chiqilmaydi. Chunki Alloh taolo Muso alayhissalomga shunday dedi:

«Ey, Muso! Gunohlar ichra shunday bir gunoh borki, og'irligi dunyodagi tog'larning og'irligicha keladi».

«Allohim! O'sha qanday gunoh?!» deb so'radi Muso alayhissalom.

Alloh taolo marhamat etdi:

«Ota-onasi yoki ulardan biri chaqirganda, farzandning javob bermasligi!»

Alloh taoloning g'azabidan qo'rquvchi kishi ota-onasini ranjitmaydi, qanday qilib bo'lsa ham ilojini topib, ularning ko'nglini, roziligini va duolarini oladi. Hatto xafa qilsalar ham, farzand ularga qarshi bosh ko'tarmaydi, ularning istaklariga, ko'ngillariga qaraydi. Agar ular yanglish, xato va harom ishni taklif etsalar, ularga buni juda muloyim tarzda bildirishi, ishontirishi va ogohlantirishi lozim bo'ladi. Ota-ona ozor bersa, ranjitsa, og'ir so'z aytsa ham darhol qo'llarini o'pib, yumshatish, duolarini olishga kirishish kerak. Ularga sovg'alar berish ularni sevintirish va ko'ngillarini topishning eng qulay yo'lidir. Ota-ona keksa bo'lsa, ularga yordam berish va yolg'iz qoldirmaslik kerak. Boshqalarning ular bilan yengil-yelpi muomalalariga yo'l qo'ymaslik, xizmatlarini to'la ado etish uchun qo'ldan ne kelsa bajarmoq lozim. Farzand kichik paytida ota-ona unga qo'l-qanot bo'ldilar. Yemadilar, yedirdilar. Kiymadilar, kiydirdilar. Kenglik-tanglik, bor-yo'q, issiq-sovuq demadilar. Xizmatdan qochmadilar. Ota-onaning duoyibadi – yoydan uchgan o'q, orqaga qaytmaydi. Nishonga tegadi. Vayron qiladi... Ota-onasi rozi bo'lgan farzanddan Alloh ham rozi bo'ladi. Ota-ona kechirmagan farzandni Alloh g'azabiga oladi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida shunday dedilar: «Jannat – onalar oyog'i ostidadir». Bu hadisning majoziy ma'nosi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ma'noni ummatga ramzli, qisqa, badiiy va go'zal bir tarzda yetkazmoqdalarki, aqli bor odam buni angelaydi. Oyoqdan murod – onaning roziligi, jannatdan murod – Allohning roziligidir. Boshqacharoq aytganda

«Onaning rizoligini olsang, Allohning rizoligi (jannat)ga yetgan bo‘lasan!» Jannatga kirishga loyiq bo‘lish uchun ota-ona roziligini olish zarur. Ularni xushnud va xursand qilish zarur. Alloh taolo Muso alayhissalomga marhamat etdi:

«Ey, Muso! Ota-onasiga yaxshi muomalada bo‘lib, ularning roziligini olgani holda Menga osiy bo‘lgan qulimni Men yaxshi qullarim qatorida yozaman. Aksincha, Menga qullik xizmatida qusuri bo‘lmasa ham, ota-onasiga yaxshiliklar qilmay, yaxshi muomalada bo‘lmay, ota-ona roziligini olmagan qulimni esa osiyalar qatorida yozaman!»

Ota-onaga ehtirom ko‘rsatish vojib amal

Islom dini insonning to‘g‘ri yo‘ldan adashib ketmasligi uchun har bir ishda o‘z ko‘rsatmalarini berib boradi. Shu jumladan, ota-ona haqlarini farzandlar zimmasiga yuklab, ularga doimo hurmatda bo‘lishga buyuradi. Qur‘oni karimning ko‘plab oyati karimlarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularning roziliklarini topishga amr qilinadi. Ota-onaga zinhor ozor bermaslik va ularning so‘zlariyu fe‘llarini hech malol olmaslikka buyuradi. Bu haqda Alloh taolo Isro surasida shunday marhamat qiladi: “Robbingiz, Uning O‘zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “uf!” dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt” (Isro surasi, 23 oyat).

Mazkur oyatda Alloh taolo o‘ziga ibodat qilishga chaqirgan amridan keyinoq ota-onaga yaxshilik qilishni ta’kidlamogda. Bu hol o‘z navbatida Islomda ota-onaning haqqi qanchalik ulug‘ ekanini bildiradi.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham ko‘plab hadisi shariflarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularning xizmatlarini qilib, duolarini olishga targ‘ib qilganlar. Jumladan: “Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan: “Amallarning qaysi biri afzal?”, – deb so‘radim. “Vaqtida o‘qilgan namoz”, – dedilar. “Keyin nima?”, – dedim. “Ota-onaga yaxshilik qilish”, – dedilar” (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati). Suyukli Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ota-onadan yetim qolgan bo‘lsalar ham, emizgan onalariga nisbatan yuksak hurmat namunalarini ko‘rsatganlar. Ibn Sa’dning “Tabaqot” kitobida yozilishicha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Xadicha onamizga uylanib, Makkada yashab turganlarida yonlariga Halimai Sa’diya kelib: “Qahatchilik tufayli hayot kechirish juda ham qiyinlashib ketdi, qurg‘oqchilikdan hayvonlar qirilib ketmogda” – deb aytadilar. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Xadicha onamiz bilan maslahatlashib unga qirqta qo‘y va bitta tuya beradilar.

Hatto bir kuni Halimai Sa’diya Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam yonlariga kelganida o‘rinlaridan turib: “Onajon!, onajon!”, – deb hurmat va muhabbat ko‘rsatganlari, ridolarini yerga solib unga o‘tqazganlari ham naql qilingan. Halimai

Sa'diya roziyallohu anho Madinadagi Baqi' qabristoniga dafn qilingan. Dono xalqimizda "Nimani eksang, shuni o'rasan", "Ota rozi – Xudo rozi" kabi ajoyib hikmatlar bor. Har bir erkak va ayol bu hikmatlardan to'g'ri xulosa chiqarib, o'zini o'nglashi, xato qilgan bo'lsa, darrov ota-onalaridan uzr so'rab, ularning ko'nglini topish, dillaridan ozorni ketkazish payida bo'lishi darkor!

Tobeinlardan biri Muhammad ibn Munkadir rahmatullohi alayhi har kuni onalarining oyoqlari ostiga yotar va: "Ey, onajon, yuzimni oyoqlaringiz bilan bosib o'ting va mening yuzlarimni do'zaxdan qutqaring", – der ekan.

Ota-onasi vafot etganlaridan keyin ham yaxshilik qilishni istagan farzandlar ota-onalari nomidan xayru sadaqa va ehsonlar qilsinlar. Qilgan sadaqalari savobini ota-onalariga bag'ishlasalar, manfaati ularga yetadi. Ota-onadan so'ng ularning qarindoshlariga, do'st va dugonalariga yaxshilik qilgan farzand xuddi ota-onasiga yaxshilik qilgan bilan barobar bo'lib, umriga ham baraka beriladi. Farzand ota-onaning roziligini olish uchun quyidagi amallarni bajarishi tavsiya etiladi.

- Avvalo, barcha ishlarda ota-onadan maslahat olish;
- Ota-onaning nasihatlarini jonu dili bilan qabul qilish;
- Gaplashganda muloyim, yoqimli so'zlar bilan muomala qilish;
- Biror xizmat buyursalar, "labbay", deb uni bajarish;
- O'ziga xush ko'rgan narsalarni ularga ham ravo ko'rish;
- Ularning oldida baland ovozda gapirmaslik;
- Ularga "uf" yoki "uh" demaslik;
- Ota-onadan oldin taomga qo'l uzatmaslik;
- Ota-ona kirib kelganda o'rnidan turish va ulardan oldin o'tirmaslik;
- Ota-ona huzurida oyoqlarini cho'zmaslik, yonboshlamaslik;
- Ulardan yuqorida o'tirmaslik;
- Ota-ona dam olayotganda ularni bezovta qilmaslik, oldilariga ruxsatsiz kirmaslik;
- Ota-onaning ko'ngillarini topib, roziligini olish;
- Ota-onaning oziq-ovqati, kiyim-kechagi va sog'lig'idan o'z vaqtida xabar olish;
- Duo qilganda ota-onasining haqlariga alohida duo qilish.

Xulosa qilib aytganda ota-ona hurmati, qadr-qimmatini farzand bo'ynidagi vazifalardan bo'lib uni ado qilish uchun ularni rozi qilish shart. Ota-onaga yaxshilik qilish, e'zozlash va ularning xizmatida bardavom bo'lish borasida payg'ambarimiz Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallam juda ko'plab muborak hadislarida biz ummatga ta'lim berdilar, jumladan Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda U zot: "Burni yerga ishqalansin, burni yerga ishqalansin, burni yerga ishqalansin", - dedilar. "Yo Rasululloh, kimni?", deyishdi. "Ota-onasi yoki ulardan biri keksaligida ular bilan birga yashab turib do'zaxga kirgan kishining", - dedilar".

Demak, kishi ota-onasi ulug' yoshga kirganida ularning xizmatlarini qilib,

roziligini topib qolsa jannatga kirishga musharraf bo'lar ekan, bo'lmasa, do'zaxga kiraruvchilar safida bo'lib qolishi aytilmoqda. Bandaning jannat yoki do'zaxga kirishiga sabab bo'ladigan amallardan biri ota-onaga bo'ladigan munosabatga bog'liq ekanini ushbu hadisi sharif bizga ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ota-onaning katta yoshdagi paytlarida alohida ehtiyotlik bilan yaxshiliklarini qilish payida bo'lish zarurligini bildirmoqda.

Va yana bir hadisda aytiladi-ki: "Robbning rizosi ota-onaning rizosidadir. Robbning noroziligi ota-onaning noroziligidadir" (Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi).

Bundan anglashiladi-ki, kim Alloh taoloni rozi qilaman, degan bo'lsa, ota-onasini rozi qilishga harakat qilishi zarur ekan. Kim Alloh taolo mendan norozi bo'lmasin, desa, ota-onasini norozi qilmaslik uchun tirishmog'i, harakat qilmog'i kerak ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar.

1. www.Islom.uz internet sayti.
2. www.masjid.uz internet sayti.
3. www.xojabuxoriy.uz internet sayti.
4. «Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni» kitob. Baxromova A.Q. 2018.
5. «Ota-ona» kitob. Jaloliddin Xolmo'minov. 2017.